

INSON FE‘L –ATVORINI BELGILOVCHI TEMPERAMENT VA XARAKTER O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi
Boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi talabasi
To‘xtamurodova Ominaxon Botirjon qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413086>

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs psixologiyasining fundamental asosi hisoblangan temperamentning biologik tabiati va uning xarakter bilan o‘zaro aloqadorligi masalalari yoritilgan. Maqolada temperament inson asab tizimining tug‘ma xususiyati, ya’ni shaxsning emotsional qo‘zg‘aluvchanligi va faollik darajasini belgilab beruvchi "biologik poydevor" sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda temperamentning o‘zgarish tabiati va xarakterning tarbiya jarayonida transformatsiyaga uchrashi, shuningdek, shaxsning barkamolligida ushbu ikki omilning uyg‘unlashuvi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Temperament, xarakter, biologik poydevor, asab tizimi, shaxs dinamikasi, psixologik tiplar, ijtimoiy muhit, individual xususiyatlar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы биологической природы темперамента, который считается фундаментальной основой психологии личности, и его взаимосвязи с характером. В статье темперамент рассматривается как «биологическая основа», определяющая врожденные особенности нервной системы человека, а именно уровень эмоциональной возбудимости и активности личности. В исследовании научно обоснована неизменная природа темперамента и трансформация характера в процессе воспитания, а также гармоничное сочетание этих двух факторов в гармоничном развитии личности.

Ключевые слова: темперамент, характер, биологическая основа, нервная система, динамика личности, психологические типы, социальная среда, индивидуальные особенности.

Annotation: This article discusses the biological nature of temperament, which is considered the fundamental basis of personality psychology, and its relationship with character. The article analyzes temperament as an innate feature of the human nervous system, that is, a "biological foundation" that determines the level of emotional excitability and activity of a person. The study scientifically substantiates the unchanging nature of temperament and the transformation of character during the upbringing process, as well as the combination of these two factors in the perfection of the individual.

Keywords: Temperament, character, biological foundation, nervous system, personality dynamics, psychological types, social environment, individual characteristics.

Kirish. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonimizda inson omili, uning ichki dunyosi va ruhiy imkoniyatlarini o‘rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnologik taraqqiyot va axborot oqimi tezlashgan sayin, insonning tashqi ta’sirlarga bo‘lgan reaksiyasi va jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi individual xususiyatlari - temperament hamda xarakter o‘rtasidagi bog‘liqlik psixologiya fanining diqqat markazida bo‘lib qolmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yoshlar - bizning eng katta boyligimiz, bebaho xazinamiz. Biz yoshlarimizga qancha ko‘p sarmoya kiritsak, bu sarmoya kelajakda bir necha barobar bo‘lib qaytadi” [1, 248-b].

Insonning ruhiy olami beto’xtov harakatlar majmuasidan iborat bo’lib, biri ikkinchisini bevosita taqozo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o’xshash holda mavjuddir. Shu bois shaxs ruhiyatida atrof-muhit to’g’risidagi taassurotlar, o’tmish to’g’risidagi taassurotlar, o’tmish xotiralari, kelajakdagi ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish-istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o’zaro o’rin almashtirib turishi evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olamning kechishi, uning mazmuni, shakli, ko’lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo’lish kuzatiladi

Temperament lotincha “temperamentum” degan so’zdan olingan bo’lib, uning ma’nosi “aralashma” demakdir. Temperament deganda biz, odatda, kishining tabiiy tug’ma xususiyatlari bilan bog’liq bo’lgan individual xususiyatlarini tushunamiz. Har bir kishining o’z temperamenti bo’ladi. Lekin har qaysi odamning temperamentlari mana shunday individual tafovutlar bo’lishi bilan birga, bu temperamentlarning umumiy, o’xshash belgi va alomatlari ham bo’ladi. Hamma xilma-xil temperamentlarni mana shunday umumiy belgilariga qarab ajratish, ya’ni klassifikatsiya qilish mumkin. Barcha temperamentlar qadimdan to’rt tipga: 1) xolerik, 2) sangvinik 3) melankolik, 4) flegmatik temperamentga ajratish rasm bo’lgan.

Sangvinik temperament-issiyotlari tez va kuchli qo’zg’aladi, biroq beqarorligi (o’zgaruvchanligi) bilan farq qiladi. Ularning kayfiyati tez-tez va keskin almashib turadi. Psixik jarayonlar jadal kechadi. Sangviniklar o’zining ildamligi, serharakatligi va hayotga bo’lgan jo’shqin munosabati bilan ajralib turadi.

Melankolik temperament- hissiyotlari sekin, lekin kuchli va barqaror bo’ladi. Melankoliklar uzoq davom etadigan bir xil kayfiyatga moyil, his-tuyg’ularini tashqi tomondan kam namoyon qiladilar. Ular ko’pincha sustkashroq bo’lib, ishga sekin kirishadilar, biroq biror ishni boshlasalar, uni oxiriga yetkazmasdan qo’ymaydilar.

Flegmatik temperament- hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo’zg’ali- shiv a uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi. Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi kuchsiz bo’ladi. Bu xil temperamentli kishilarni xursand qilish, hafa qilish yoki g’azablantirish juda qiyin.

Xarakter yunoncha “xarakter” so’zidan olingan bo’lib, “qalqiq chiziq” ma’nosini anglatadi. Bu yerda tanga, chaqa yuziga tushirilgan bo’rtma tamg’a ko’zda tutiladi. Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta’siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga) o’z o’ziga bo’lgan munosabatlarida namoyon bo’ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz. Shaxsning xarakteriga tegishli bo’lgan xususiyatlarni xarakter xislatlari deyiladi. Xarakter xislatlari kishida tasodifiy uchraydigan xususiyat bo’lmay, balki kishining xulqidagi doimiy, barqaror xususiyatlar bo’lib, bu xususiyatlar shahsning o’zigagina xos bo’ladi.

Temperament va xarakter o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik. Xarakter va temperamentning o’zaro munosabati ularning fiziologik asoslari bilan belgilanadi. Biz yuqorida ko’rib o’tganimizdek, nerv sistemasining tipi xarakter xususiyatlari ifodalanadigan xarakterning individual o’ziga xos usullariga ta’sir qiladi. Temperament tipining ta’siri ham bunga mos keladi. Odamlar bilan munosabatga intilish bo’lganda, sangviniklar odatda, birinchi bo’lib gap boshlaydilar, flegmatiklar bo’lsa, munosabatda anchagina passiv bo’ladilar. Ular bajoni dildan ochiq ko’ngil nva samimiyat bilan o’z o’rtoqlari dugonalari bilan o’z ichki kechinmalari haqida suhbatlashadilar, lekin ular bunday ishlarni kamdan-kam o’z tashabbuslari bilan qiladilar. Xarakter xususiyatlarining tashqi jihatdan namoyon bo’lib, ana shunday tarzda vaqt mobaynida o’rishini dinamik xususiyat deb atash mumkin. Xarakter xususiyatlarining dinamik xususiyati temperament xususiyatlariga bog’liqdir.

Adabiyotlar tahlili I.P. Pavlov temperamentni quyidagicha ta’riflaydi: “har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning

butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir” (Полное собрание сочинений Б III tom, 2-kitob, 103-bet).

“В.М. Теплов ilmiy maktabida I.P. Pavlov tadqiqotlarida aniqlangan nerv sistemasining xususiyatlari to’g’risidagi nazariya va tahminlar muayyan darajada kemgaytirilgan hamda temperamentning tub mohiyatini tushuntirishga qulay imkoniyatlar yaratilgan. Lekin shunday chuqur izlanishlar olib borilishiga qaramay, psixologlar tomonidan kashf qilingan xususiyatlarning kimyoviy va fizikaviy mohiyati hanuzgacha noma’lumli-gicha qolmoqda.”[2, 159-bet]

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, I.P. Pavlov ta’limotida tempera-mentning psixologik ta’siri nerv sistemasining barcha xususiyatlari bilan aloqadorligi yoki uning tipiga tegishli ekanligi tushuntiriladi. Shu bois temperamentning u yoki bu xususiyati nerv sistemasining birorrrta xislat bilan emas, balki xususiyatlarning turkumlari bilan aloqaga kirishadi. Buning ta’sirida, nerv sistemasi xususiyatlarining miqdoriy munosabatlari-da temperament xususiyatlari ham sifat o’zgarishini yasaydi.

Xulosa qilib aytganda, temperament va xarakter shaxsning individual -tipologik xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardir. Temperament shaxsning tug’ma psixofiziologik xususiyatlarini ifodalasa, xarakter ijti-moiy muhit ta’sirida shakllanadi. Ularning uyg’un rivojlanishi shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Temperament va xarakter shaxs psixologiyasining ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Temperament shaxsning tug’ma, biologic jihatdan belgilangan xususiyatla-rini ifodalasa, xarakter ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadigan ssifatlarni aks ettiradi. Ulning kompleks o’rganish shaxsni har tomonlama tushunish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish hamda individual yondashuvni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2021.
2. E. G’oziyev “Umumiy psixologiya” O’zMU O’quv metodik Kengashining 2002 yil. Majlis bilan nashrga tavsiya etilgan.
3. M>E. Zufarova “Umumiy psixologiya”. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent- 2010.
4. В.М. Umarov “Psixologiya”. “Voriz nashriyot” Toshkent- 2012.
5. E.G’. G’oziyev “Psixologiya”. “O’qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2008.
6. А.В. Петровский, А.В. Брушлинский, В.П. Зинченко, П.И. Зинченко, Т.П. Зинченко, Л.Б. Ительсон, Н.С. Лейтес, В.С. Мухина, Е.Б. Пирогов, Г.С. Середа, М.Г. Ярошевский. “Umumiy psixologiya” Toshkent- O’qituvchi- 1992.
7. Алишерова Зульфия Толибджановна. (2025). ВАЖНОСТЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ ПОДРОСТКОВ. *Лучший журнал инноваций в науке, исследованиях и разработках*, 4(6), 148–150. Получено из <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>
8. Yoqubaliyeva Dilafr’z Payzidin qizi Sun’iy intellekt – bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilari ta’limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida. (2025). *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, 3(6). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15779871>
9. Yoqubaliyeva, D. P. (2025). Bo’lajak tarbiya fani o’qituvchilarini “tarbiya” fanini o’qitishga tayyorlashning samarali tamoyillari va omillari. *Экономика и социум*, (2-2 (129)), 238-247.